XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-89-99-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun yangi tariflarni tasdiqlash to‘g‘risida

“Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni *(O‘RQ-784, 22.07.2022-y., Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.07.2022-y.,03/22/784/0661-son)*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli Farmoni *(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2020-y., 06/20/6074/1322-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 06/21/34/1164-son, 25.05.2022-y., 06/22/140/0450-son; 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son; 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son),* 2023-yil 7-avgustdagi “Osiyo Infratuzilma Investitsiyalari banki ishtirokida “Buxoro viloyatining suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish (2-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-266-sonli qarori *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2023-y., 07/23/266/0573-son),* “Buxoro suv ta’minoti” MCHJning 2023-yil 5-dekabrdagi 1496-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi *(01/06/20-05-38/1936, 01/06/20-05-38/1937-sonli)* xulosalariga asoslanib, ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tariflarni tartibga solish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. “Buxoro suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori

M.Amonovning viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar tariflari yuzasidan taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar tariflari bo‘yicha xulosasi inobatga olinsin.

3. Buxoro viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun yangi tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari B.Axmedov, J.Arashov, “Buxoro suv ta’minoti” MCHJ (M.Amonov)ga tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlardan mavjud qarzdorliklarni qisqartirish choralarini ko‘rish;

ichimlik suvidan samarasiz va noqonuniy foydalanishning oldini olish;

sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasini yanada yaxshilash, tarmoqdagi avariya holatlarini o‘z vaqtida bartaraf etib borish;

ichimlik suvi resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni isrof qilmaslik yuzasidan aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish topshirilsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 29-avgustdagi 76/13-VI-sonli hamda 2020-yil 28-dekabrdagi 122/22-VI-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning Buxoro.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingandan 15 (o‘n besh) kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Homidov) hamda viloyat hokimi o‘rinbosari J.Arashov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-99-2-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun yangi tariflar

Xizmat turi	**Amaldagi tarif** *(QQSsiz va maxsus ustamasiz, so‘mda)*	**Yangilangan tarif** *(QQSsiz va maxsus ustamasiz, so‘mda)*
“Buxoro suv ta’minoti” MCHJ		
Ichimlik suvi ta’minoti bo‘yicha		
Aholi uchun 1 m^3	2 400	3100
Budjet tashkilotlari uchun 1 m^3	3 800	7000
Boshqa yuridik iste’molchilar uchun 1 m^3	3 800	7000
Oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha		
Aholiga 1 m^3 uchun	1 800	2800
Budjet tashkilotlariga 1 m^3 uchun	2 600	4800
Boshqa yuridik iste’molchilarga 1 m^3 uchun	2 600	4800
Texnik suv yetkazib berish bo‘yicha		
Barcha ist’molchilar uchun 1 m^3	1 000	1500
“Damxo‘ja suv ta’minoti” MCHJ		
Ichimlik suvi ta’minoti bo‘yicha		
Suv ta’minoti korxonalari va aholi uchun 1 m^3	320	650 *(suv ta’minoti korxonalari orqali)*
Boshqa yuridik iste’molchilar uchun 1 m^3	700	1500